



YOSHLAR TARBIIYASIDA MILLIY QADRIYATLARNING IJTIMOIY-MA'NAVIY AHAMIYATI

Ubaydulloyeva Mashhura Lutfullo qizi

Buxoro davlat universiteti

Madaniyatshunoslik mutaxassisligi

1-bosqich magistranti

ubaydulloyevamashhura@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17615073>

ARTICLE INFO

Received: 1st November 2025

Accepted: 2nd November 2025

Published: 15th November 2025

KEYWORDS

milliy qadriyatlar, yoshlar tarbiyasi, globallashuv, milliy o'zlik, ijtimoiy-ma'naviy muhit, tarbiya tizimi, ma'naviy-mafkuraviy tahdid.

ABSTRACT

Maqolada yoshlar tarbiyasida milliy qadriyatlarning ijtimoiy-ma'naviy ahamiyati tahlil etilgan. Milliy qadriyatlar tushunchasining ilmiy ta'rifi, ularning yoshlar ongida shakllanish jarayoni, globallashuv sharoitida yuzaga kelayotgan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari yoritilgan. Shuningdek, O'zbekiston ta'lim tizimida milliy qadriyatlarni singdirishning amaliy jihatlari ko'rib chiqilib, ilmiy-amaliy tavsiyalar berilgan. Tadqiqot natijalari milliy tarbiya tizimini takomillashtirish va yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda foydali bo'lishi mumkin.

Kirish. Har bir jamiyatning asosiy boyligi uning milliy madaniyati va qadriyatlaridir. Ayniqsa, yoshlar tarbiyasida milliy qadriyatlarning o'rni beqiyosdir. Chunki yosh avlod — davlat va jamiyatning kelajagi, ular orqali madaniyatning asriy an'analari saqlanib qoladi va rivojlanadi, ular orqali milliy o'zligikni hamda milliy madaniy meroslarni kelajak avlodga yetkazib berish mumkin bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoevning Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasida: "...yoshlarni zamonaviy bilim va tajribalar, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo'lgan insonlar etib voyaga yetkazamiz", deb ta'kidlagan edi. Bu shundan dalolatki, zamonaviy davrda globalizatsiya, texnologiyalar va xorijiy ta'sirlar hamda G'arbdan yopirilib kelayotgan ommaviy madaniyat yoshlarni o'ziga jalb qilayotgan bir paytda, milliy madaniyat va qadriyatlarni o'rgatish va ularga hurmat bilan qarash juda muhimdir.

Milliy qadriyatlar — bu muayyan millatning tarixiy tajribasi, madaniy-milliy xususiyatlari va dunyoqarashidan kelib chiqadigan ijtimoiy-ma'naviy tamoyillar yig'indisidir. Milliy qadriyatlar faqatgina an'ana sifatida emas, balki shaxsiy taraqqiyot, ijtimoiy moslashuv, madaniy uzviylikning kafolati sifatida ham ko'riladi. Bu qadriyatlar milliy identitetning asosiy poydevoridir.

Asosiy qisam. Ma'lumki, milliy qadriyatlar yosh avlod tarbiyasida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Yosh avlodning dunyoqarashi, ijtimoiy faolligi, fuqarolik pozitsiyasi ko'p jihatdan uning qanday qadriyatlar asosida ulg'ayganiga bog'liq. Pedagogik nuqtai nazardan qaraganda yoshlar milliy qadriyatlar orqali o'zini jamiyat a'zosi sifatida anglaydi, o'z majburiyatlari va burchlarini tushunadi.

O'zbekiston ta'lim tizimida ushbu masala alohida e'tiborga olingan. Jumladan, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitilayotgan "Odobnoma", "Vatan tuyg'usi", "Tarbiya" kabi darslar orqali milliy qadriyatlar tizimli tarzda yoshlar ongiga singdirilmoqda. Bundan tashqari,

maktab va Oliy ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan "Ma'naviyat va ma'rifat" markazlari, "Yoshlar ittifoqi" va boshqa jamoat tashkilotlari orqali ham yoshlar bilan maqsadli tarbiyaviy ishlar olib borilmoqda. Bunday keng ko'lamli islohotlardan ko'zlangan eng katta maqsad avvalo, yoshlarni o'z millatiga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, milliy madaniyatimiz hamda qadriyatlarimizni shu yo'l bilan kelajak avlodga yetkazishdan iborat.

Yetishib kelayotgan yosh avlodning ongiga milliy madaniyatimizning qanchalik qimmatligi hamda hozirgi zamonaviy jamiyatda milliy axloqiy qadriyatlarning o'rni nihoyatda beqiyosligini singdirish millatimiz kelajagi uchun tashlangan muhim qadamlardan biridir. Chunonchi, vatan kelajagi yosh avlod qo'lida. Zero, yoshligidanoq jamiyatning axloqiy qadriyatlarini, milliy identitini hamda milliy madaniyatini tanib ulg'aygan yoshlarda vatanparvarlik, halollik, o'z xalqiga hamda millatiga cheksiz hurmat va muhabbat, sadoqat kabi oliy tushunchalar doim ustuvor bo'ladi.

Shuni takidlab o'tish kerakki, kelajak avlodni millat ruhida tarbiyalash orqali nafaqat milliy o'zligimizni va madaniyatimizni saqlab qolishimiz hamda rivojlantirishimiz, balki o'z milliylikimizni, "o'zbek" deb atalmish buyuk millatni butun dunyoga tanitishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A. Karimov "Biz uchun ma'naviy, tarixiy va madaniy qadriyatlar, aholining ma'naviy, axloqiy holati, yosh avlodni tarbiyalash eng asosiy ustuvor vazifa bo'lishi lozim" degan edi. Binobarin, sog'lom yosh avlod o'z milliy qadriyatlari va madaniyatini hurmat qiladi hamda tarixiy merosini asrab avaylaydi.

Afsuski, hozirgi globallashuv sharoitida mamlakatimizdagi yosh avlod madaniyatiga chetdan kirib kelayotgan yot g'oyalar o'z ta'sirini o'tkazmay qolmayapti. Globallashuv — insoniyat taraqqiyotining tabiiy bosqichi bo'lishiga qaramasdan, milliy madaniyat va qadriyatlarga salbiy ta'sir ko'rsatish xavfini ham tug'dirmoqda. Jumladan, G'arb ommaviy madaniyatining kuchli axborot vositalari orqali yoshlar ongiga singib borishi, ularni o'zligidan uzoqlashtirishi mumkin.

O'zbekiston Yoshlar ishlari agentligining 2023-yilgi hisobotida ko'rsatilishicha, ijtimoiy tarmoqlarda faol bo'lgan yoshlarning 40 foizi milliy qadriyatlar va urf-odatlarini zamonaviy hayotga mos emas, deb hisoblaydi. Bu esa yoshlar orasida ma'naviy qadriyatlarga nisbatan befarqlik kuchayayotganini ko'rsatadi.

Shunday sharoitda ta'lim va tarbiya tizimi oldida yoshlar ongida milliylikni saqlab qolish, ularni yot g'oyalardan himoya qilish kabi muhim vazifalar turibdi. Buning uchun esa innovatsion metodlar, zamonaviy texnologiyalar orqali qadriyatlar targ'ibotini olib borish lozim. Avvalo yoshlarimizni mana shunday ma'naviy-mafkuraviy tahdidlardan himoya qilishimiz kerak. Chetdan kirib kelayotgan yot g'oyalar "ommaviy madaniyat" ko'rinishida xalqimiz turmush tarziga aylanib ketishini oldini olish kerak. Atrofdagi bo'layotgan voqea hodisalarga befarq bo'lmay yoshlarda dahldorlik hissini kuchaytirishimiz lozim. Buning uchun avvalo yoshlar tarbiyasiga jiddiy e'tibor qaratishimiz kerak. Buyuk mutaffakkir Abdulla Avloniy aytganidek: "tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo saodat, yo falokat masalasidir". Darhaqiqat, buyuk islohotlar va buyuk o'zgarishlarning ibtidosi avvalo shaxs tarbiyasiga borib taqaladi. Chunki ma'naviy komillikka erishgan shaxs o'z tarbiyasi, madaniyati hamda ilmi orqali atrofdagilarga ham ziyo ulashishi mumkin.

Yosh avlod tarbiyasiga milliy mafkurani singdirish juda katta kuch va mehnat talab etadi. Chunki masala faqat bir shaxs emas, butun bir xalq ustiga qurilgan. Mamlakatimizdagi barcha ijtimoiy institutlar bu masala ya'ni yosh avlodni milliy o'zlik hamda qadriyatlar negizida tarbiyalash uchun harakat qilishi kerak. Maktabgacha ta'lim muassalari, mahallalar, maktablar, Oliy talim muassalari, madaniyat markazlari hamda manaviyat va marifat markazlari bu ish uchun mas'uldirlar. Xalqimiz qon-qongiga singib ketgan bunday manaviy boyliklarimizni ko'z qorachig'imizday asrashimiz lozim. "Yoshlarimiz tarbiyasi - bu bir kishining ishi emas. Agar hamma birgalashib harakat qilsa, yoshlar Vatan va el - yurt koriga yaraydigan insonlar bo'lib ulg'ayadilar. Yaxshi tarbiya insonga ma'naviyat kabi ona suti, ota na'munasi va ajdodlar o'giti bilan birga singadi".

Milliy qadriyatlarimiz hamda milliy madaniyatimizni turli xil usullar orqali xalqimiz, xususan yoshlar ongiga singdirishning juda ko'p amaliy usullari mavjud. Milliy qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirishning samarali yo'llarini izlab topish hamda amaliyotga tatbiq etish mumkin. Hozirgi kunda bunday amaliy ishlar talaygina yo'lga qo'yilgan. Milliy qadriyatlar targ'ibotini samarali amalga oshirish uchun quyidagi yo'nalishlar muhim deb hisoblanadi:

1.Ta'lim dasturlarini takomillashtirish: Darsliklar va o'quv kurslarida milliy qadriyatlarga oid mavzularni kengaytirish. Yuqorida aytilganidek maktab darsliklarining shu sohadagi fanlarida chuqurlashtirilgan mavzular orqali yoshlar xotirasidan sezilarli joy egallash mumkin.

2.Axborot texnologiyalaridan foydalanish: Qadriyatlarni yoshlar uchun jozibali formatda masalan,video roliklar, animatsiyalar, bloglar orqali yetkazish. Ijtimoiy tarmoqlarda aynan madaniy-ma'naviy yo'nalishda kontentlar tayyorlash va targ'ibot qilish mumkin.

3.Oila va mahalla bilan hamkorlik: Tarbiyaning ijtimoiy muhitini kuchaytirish, oilaviy qadriyatlarni tiklash. Mahallalarda madaniya tadbirlar tashkil etish orqali aholini bu masalaga jalb etish lozim.

4.Ijodiy va madaniy loyihalar: Teatr, adabiyot, kino orqali qadriyatlarni yoritish va targ'ib qilish. Milliy qadriyatlar yortilgan asarlarni ko'paytirish, shu mavzuda spektakl, kino mahsulotlarini ishlab chiqish mumkin.

Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda faol yoshlar blogerlari orqali ijobiy qadriyatlarni ommalashtirish ham katta ahamiyatga ega. Negaki, hozirgi internet dunyosida har qanday ijtimoiy harakatdan ko'ra internet bilan bog'liq zamonaviy tendensiyalar ko'proq ta'sir doirasiga ega hamda ayniqsa, yoshlar uchun qiziqarliroq bo'lishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, yoshlar tarbiyasida milliy qadriyatlarning o'rni beqiyos bo'lib, ular shaxsning ijtimoiy ongini shakllantirish, vatanparvarlik va fuqarolik tuyg'ularini mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, milliy qadriyatlar – bu xalqning tarixiy-madaniy tajribasi, axloqiy mezonlari va ma'naviy hayotining asosiy tayanchidir. Globallashuv sharoitida bu qadriyatlar kuchli ma'naviy immunitet sifatida yosh avlodni yot g'oyalardan himoya qiladi. Shu bois, ta'lim-tarbiya tizimida milliy qadriyatlar asosida innovatsion, zamonaviy yondashuvlarni qo'llash, yoshlar bilan tizimli ish olib borish dolzarb vazifadir. Oila, mahalla, maktab va jamoat tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali bu yo'nalishda yuqori natijalarga erishish mumkin. Shuningdek, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali milliy qadriyatlarni targ'ib etish zamonaviy tarbiyaning ajralmas qismiga aylanishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak manaviyat-yengilmas kuch T. Ma'naviyat, 20008,138-140-bet.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasi. Toshkent. 2020 yil 29 yanvar
3. "Milliy qadriyatlar va ma'naviy merosning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati": respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Toshkent: ... nashriyoti, 2023. – 480-bet.
4. Rustamova M. Milliy qadriyatlar asosida yoshlarni tarbiyalash. – Toshkent: Ma'naviyat, 2019.